

Avtoturargohlar kerakmi?

Shodiyev Sardor Rustam o'g'li

(“Buxoro muhandislik-texnologiya instituti”

“Bino va inshootlar qurilishi” kafedrasi o'qituvchi-stajyori)

Transport tizimi – zamonaviy dunyo harakatlanish tizimining ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. Bu tizimning eng asosiy elementi – insonlardir. Mavjud sharoitda insonsiz transportni tasavvur qilib bo'lmagani kabi yo'lovchilarni hisobga olmay turib, transport tizimini rejalashtirish ham mumkin emas.

Ta'kidlash joyizki, bugun nafaqat Toshkent shahri, balki respublikamizning deyarli barcha viloyatlaridagi transport tizimining ahvoli qoniqarli emas. Ayniqsa, shaxsiy avtomobillar soni va aholi soni tobora ortib borayotgani bois transport masalasi Toshkent shahrining eng og'riqli muammolaridan biriga aylanib ulgurdi. So'nggi 10 yilda poytaxtda avtomobillar soni ikki baravardan ziyodroqqa oshgani, boz ustiga, jamoat transporti yo'nalish tarmoqlari o'tgan asrning 80-yillarida tuzilgani, ammo shu vaqtga qadar mukammal tarzda qayta ko'rib chiqilmagani, oqibatda shahar jamoat transporti tizimida jiddiy muammolar yig'ilib qolgani mavjud vaziyatni tobora murakkablashtirmoqda.

Tor va keyinchalik toraygan yo'llar, shuningdek, chorrahalar eng yuqori darajadagi tirbandlik kuzatiluvchi joylardir. Ayniqsa, ma'lum bir nuqtadan keyin qatorlarining soni kamayib, torayib boruvchi yo'llarda tirbandlik yuzaga kelishi muqarrar. Shuning uchun yo'l rejalarini tuzishda mana shunday tor og'izli yo'llardan iloji boricha qochishga urinilgani ma'qul.

Asosiy yo'llarimizning avtomobil zichligini ko'tara oladigan darajada keng emasligi ham yana bir muammodir. Bunday tor yo'llarda ko'rilishi lozim bo'lgan muhim ehtiyot choralaridan biri – transport vositalari yo'l chetiga qo'yib ketilishining oldini olish va buni nazorat qilishdir.



Chorrahalarimizning turli yo‘nalishlardan keladigan avtomobillar oqimiga javob bera olmasligi ham jiddiy noqulaylik tug‘diradi. Shu bois, chorrahalariga yerosti yo‘llari yoki estakada (transport vositalari va piyodalar uchun mo‘ljallangan yo‘llar yer sirtidan ma‘lum balandlikda o‘tkaziladigan inshoot; ko‘prik – tahr.) qurish orqali turli marshrutlardagi avtomobil yo‘llari kesishishining oldini olish mumkin.

Avtomobillar turar joylarini ko‘paytirish. Park and Ride tizimini rag‘batlantirish Katta shaharlarda, xususan, poytaxtda avtotransportlar soni ko‘payishi avtomobil to‘xtash joylarining ortishi bilan parallel emas. Tabiiyki, «stoyanka»larning yetarli emasligi yo‘llarda noqonuniy to‘xtab turish holatlari ko‘payishiga olib keladi. Bu holat o‘z navbatida, transport bilan bog‘liq muammolar yanada murakkablashishiga sabab bo‘ladi.




Aksariyat mamlakatlarda, masalan, Angliyada, shuningdek, Turkiyaning Istanbul shahrida Park and Ride tizimi orqali bu muammoga yechim topishga va bu bilan odamlarni jamoat transportiga yo'naltirishga alohida e'tibor qaratiladi. Park and Ride tizimiga ko'ra, shahar markaziga mashinada boradigan insonlar avtomobillarini jamoat transporti stansiyalarida joylashgan bepul yoki chegirmali avtoturargohlarda qoldirib, yo'ning qolgan qismini jamoat transportida davom ettirishadi. Albatta, bu tizimdan foydalanish orqali yo'llardagi tirbandlikni kamaytirish mumkin.

Qolaversa, ko'p qavatli yoki yerosti avtoturargohlar insho etish, shuningdek, yangi turar joylarda avtoturargohlar qurilishini majburiy holga keltirish mavjud ehtiyojlarni qondirish bilan bir qatorda kelgusida avtotransportlar sonining ko'payishiga javob beruvchi infratuzilma yaratilishi uchun asos bo'ladi.

Yer osti to'xtash joyi ko'plab binolar uchun jozibador variant bo'lgan bir qator afzalliklarga ega.

Joyni tejash: yer osti avtoturargohi bino ostidagi bo'sh joydan foydalanishga imkon beradi, bu ayniqsa yer cheklangan shaharlarda qimmatlidir. Bu mavjud maydondan maksimal darajada samarali foydalanish va to'xtash joylari sonini ko'paytirish imkonini beradi.



Yaxshilangan shahar muhiti: yer osti to'xtash joyi ko'chalarda to'xtab turgan mashinalar sonini kamaytirishga yordam beradi, bu esa shahar muhitini yaxshilaydi. Sirtida avtomobillarning yo'qligi piyodalar uchun joyni yaxshilaydi, obodonlashtirish uchun ko'proq imkoniyatlar yaratadi va harakatni osonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1]. Юсупов Р. Р., Салимов М. Ф. ЭКСПЛУАТАЦИЯ ЖАРАЁНИДА КОМПЛЕКС КОНСТРУКЦИЯЛИ БИНОНИНГ ФИШТ ТЕРМАНИНГ КУЧАЙТИРИШ УСУЛЛАРИ //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 14. – С. 110-116.

[2]. MM V. KO_ P QAVATLI KARKASLI TURAR-JOY BINOLARINING ERTO_ LALARINI AVTOMOBILLAR TURARGOXLARIGA MOSLASHTIRISH //ARCHITEKTURA VA QURILISH MUAMMOLARI (ILMIY TEXNIKLIK). – 2023. – Т. 1. – Yo'q. 2. – 619-621-betlar.

[3]. SR S. KO 'P QAVATLI BINOLARDA YERTO 'LALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI //PROBLEMS OF ARCHITECTURE AND CONSTRUCTION (SCIENTIFIC TECHNICAL JOURNAL). – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 600-602.

[4]. Baxtiyor o'g'li J. S. BINO VA INSHOOTLARNING TO'SUVCHI KONSTRUKSIYALARIDA YENGIL BETONLARDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI //PEDAGOG. – 2024. – Т. 7. – №. 3. – С. 106-108.

[5]. Ходжаева З. Ш., Бобокулов М. Б., Жумаев Ш. Самоний макбараси тарихий обидасининг конструктив ечимлари ва тахлили. – 2023..

[6]. Baxtiyor o'g'li J. S. ME'MORIY YODGORLIKLARNI SAQLASH VA QAYTA TIKLASHDA 3D TEXNOLOGIYASI AHAMIYATI. – 2023.

[7]. Ochilova Nurzoda Tursunovna. Qurilish materiallari va buyumlari fanini muammoli ta'lim texnologiyalari asosida

o'qitish metodikasini takomillashtirish. Международный научный журнал № 19(100), часть 1 «Научный импульс» Март, 2024 133-141 б.

[8]. Tursunovna O. N. Cho'yan va po'lat ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish usullari .PEDAGOGS. 2024. T. 53. №. 1. С. 116-126.

[9]. Очилова Н.Т. ПОСТРОЕНИЕ ТЕНЕЙ В ПЕРСПЕКТИВЕ INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY ECHNOLOGY UIF = 8.2 | SJIF = 5.955 ISSN: 2750-3402 IBAS October.2022 P.117-123 (<https://doi.org/10.5281/zenodo.7223387>)

[10]. Юсупов Р. Р., Салимов М. Ф. ЭКСПЛУАТАЦИЯ ЖАРАЁНИДАГИ ТЕХНИК ҲОЛАТИНИ ТЕКШИРИШ ВА КОМПЛЕКС КОНСТРУКСИЯЛИ ЖАМОАТ БИНОСИНИНГ ҒИШТ ТЕРМАНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИНИ АНИҚЛАШ НАТИЖАЛАР ТАҲЛИЛИ //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 14. – С. 117-122.